



XALQ DEPUTATLARI SAMARQAND VILOYATI KENGASHINING Q A R O R I

2023 - yil 31 - yanvar

VI-80-3-7-0-K/23

Samarqand viloyat hokimligi

Yuridik shaxslarning mol-mulk solig‘i, yer solig‘i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to‘lash muddatini kechiktirish (bo‘lib-bo‘lib to‘lash) to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksining 99-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-dekabrda “Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan soliq to‘lovchilarning soliq to‘lash muddatlarini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 776-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizomning 7-bandiga muvofiq viloyat Davlat soliq boshqarmasining 2023-yil 9-yanvardagi (25-08153-son) murojaatini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashining oltinchi chaqiriq, saksoninchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Samarqand viloyati Davlat soliq boshqarmasi boshlig‘i A.Inagamovning xo‘jalik yurituvchi subyektining soliq to‘lash muddatlarini o‘zgartirish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.
2. Soliq to‘lash muddatlarini o‘zgartirish imkoniyati berilgan xo‘jalik yurituvchi subyekt ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
3. Viloyat Davlat soliq boshqarmasi (A.Inagamov) Samarqand shahar davlat soliq inspeksiyasi tomonidan uch ish kuni mobaynida soliq to‘lash muddatlarini o‘zgartirish imkoniyati berilgan xo‘jalik yurituvchi subyektning shaxsiy varaqasiga tegishli yozuvlar kiritilishini va ikki tomonlama dalolatnoma tuzilishini ta’minlasin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budget, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (F.Nasrullayev) va viloyat hokimining birinchi o'rinbosari kotibiyati (K.Xushbakov) zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



E.Turdimov

Xalq deputatlari Samarqand viloyat Kengashining
2023 yil 31 yanvardagi
VI-80-3-7-0-K/23-son qaroriga
1-ilova

Soliq to'lash muddatlarini o'zgartirish imkoniyati berilgan xo'jalik yurituvchi subyekti bo'yicha

MA'LUMOT

so'm

№	Soliq to'lovchi nomi	STIR	Ro'yxatdan o'tgan hudud nomi	Jami soliq qarzi summasi	jumladan, soliq turlari bo'yicha				Kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati berilayotgan muddat (oy hisobida)
					Suv solig'i	Mol-mulk solig'i	Yer solig'i	Aylanmadan olinadigan soliq	
1.	“Chortut” fermer xo'jaligi	200766900	Pastdarg'om tumani	1 466 071 013,15	380 568 541,77	98 018 693,55	987 483 77,83		2023-yil yanvar- 2023-yil dekabr 12 oy
	jami			1 466 071 013,15	380 568 541,77	98 018 693,55	987 483 77,83		